

KONSTITUTSIYADA MEHNAT QILISH HUQUQINING KAFOLATLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Abdumalikov Abdulaziz Ravshanbek o'g'li

Farg'ona yuridik texnikumi "Davlat-huquqiy faoliyati" yo'nalishi
2-kurs 40-24-guruh o'quvchisi.

Mahmudov Abdulbosit Sherzodjon o'g'li

Farg'ona yuridik texnikumi "Davlat-huquqiy faoliyati" yo'nalishi
2-kurs 45-24-guruh o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21461975>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan mehnat qilish huquqining kafolatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda Konstitutsiyaning 42-moddasida belgilangan munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, qulay mehnat sharoitlarida ishlash, adolatli haq olish hamda ishsizlikdan himoyalash huquqlari yoritib beriladi. Shuningdek, majburiy mehnat taqiqi, dam olish huquqi, ayollar va voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish normalari hamda ushbu kafolatlarni ta'minlashning qonunchilik, sud, ma'muriy va nazorat mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Maqolada mehnat huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, mehnat qilish huquqi, mehnat erkinligi, eng kam ish haqi, munosib mehnat, majburiy mehnat taqiqi, ishsizlikdan himoya, mehnat kafolatlari, mehnat inspeksiyasi, kasaba uyushmasi.

CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF THE RIGHT TO WORK AND MECHANISMS FOR THEIR IMPLEMENTATION

Abstract. This article analyzes the guarantees of the right to work enshrined in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the mechanisms for their implementation. It examines the rights established in Article 42 of the Constitution: decent work, free choice of profession and type of activity, favorable working conditions, fair remuneration, and protection against unemployment. It also considers the prohibition of forced labor, the right to rest, norms protecting the labor of women and minors, as well as the legislative, judicial, administrative, and supervisory mechanisms for ensuring these guarantees. The article develops proposals for improving the system of protecting labor rights.

Keywords: Constitution, right to work, freedom of labor, minimum wage, decent work, prohibition of forced labor, protection against unemployment, labor guarantees, labor inspection, trade union.

Mehnat qilish huquqi inson huquqlarining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridan biri hisoblanadi. U shaxsning moddiy farovonligini, o'zini kasbiy jihatdan namoyon etishini va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mehnat sohasidagi huquqiy kafolatlarni sezilarli darajada kengaytirdi. Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston huquqiy va ijtimoiy davlat sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ijtimoiy davlat tamoyili har bir fuqaro uchun munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqini ta'minlashni nazarda tutadi.

Mehnat qilish huquqining asosiy kafolatlari Konstitutsiyaning 42-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniish huquqiga ega. Ushbu norma mehnat huquqining barcha asosiy jihatlarini qamrab olgan yaxlit konstitutsiyaviy kafolat hisoblanadi.

Ushbu moddaning muhim yangiligi – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi to'g'risidagi normadir. Bu qoida eng kam ish haqi shunchaki nominal ko'rsatkich emas, balki inson munosib yashashi uchun yetarli bo'lishi lozimligini anglatadi. Norma Xalqaro Mehnat Tashkilotining eng kam ish haqini belgilash bo'yicha standartlariga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, uni amalda ro'yobga chiqarish "iste'mol savatchasi" va "qashshoqlik chegarasi" kabi mezonlarni joriy etishni taqozo etadi.

Konstitutsiyada gender tengligi kafolatlari ham alohida mustahkamlangan. 42-moddaga ko'ra, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Ushbu norma mehnat sohasida ayollarga nisbatan kamsitishning eng keng tarqalgan shakllariga barham berishga qaratilgan muhim huquqiy kafolatdir. Mehnat erkinligining yana bir kafolati sifatida majburiy mehnat taqiqi belgilangan: sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Shuningdek, bolaning sog'lig'i, xavfsizligi va to'liq rivojlanishiga tahdid soladigan har qanday turdagi bolalar mehnatini taqiqlaydigan norma Konstitutsiyaga ilk marta kiritildi.

Dam olish huquqi mehnat huquqining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Konstitutsiyaga ko'ra, har kim dam olish huquqiga ega bo'lib, yollanib ishlovchilarga bu huquq ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlamaydigan bayram kunlarini, haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tilini belgilash orqali ta'minlanadi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilangan bo'lib, bu ijtimoiy jihatdan zaif toifalarni qo'shimcha himoya qilish kafolatidir.

Konstitutsiyaviy kafolatlarni amalda ro'yobga chiqarishning birinchi mexanizmi qonunchilik mexanizmidir. Konstitutsiya normalari tarmoq qonunchiligida, avvalo Mehnat kodeksida aniqlashtiriladi. 2022-yil 28-oktabrdagi O'RQ-798-son Qonun bilan tasdiqlangan va 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni batafsil tartibga soladi, mehnat shartnomasi, ish vaqti, dam olish vaqti, mehnat haqi va mehnat muhofazasi masalalarini belgilaydi.

Ikkinchi muhim mexanizm – mehnat huquqlarini sud tartibida himoya qilishdir. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan. Xodim noqonuniy ishdan bo'shatilgan, ish haqi to'lanmagan yoki boshqa mehnat huquqlari buzilgan taqdirda sudga murojaat qilib, buzilgan huquqini tiklash, ishga qayta tiklanish va yetkazilgan zararining o'rmini qoplashni talab qilishi mumkin. Shuningdek, har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi berilgan bo'lib, qonunda nazarda tutilgan hollarda bunday yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi.

Uchinchi mexanizm – davlat nazorati. Mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan nazorat amalga oshiriladi. Inspeksiya ish beruvchilar faoliyatini tekshirish, aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralari ko'rish vakolatiga ega. To'rtinchi mexanizm sifatida kasaba uyushmalari faoliyati va ijtimoiy sheriklikni ko'rsatish mumkin: jamoa shartnomalari orqali xodimlar uchun qonunchilikda belgilanganiga nisbatan qo'shimcha mehnat huquqlari va kafolatlari nazarda tutilishi mumkin.

Beshinchi mexanizm – davlatning bandlikni ta'minlash borasidagi faoliyati. Konstitutsiyaga muvofiq, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi hamda fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi va rag'batlantiradi. Ushbu normalar bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyati, kasbga o'qitish dasturlari va ishsizlik nafaqalari tizimi orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mehnat qilish huquqining kafolatlari sezilarli darajada kengaytirilib, ular ijtimoiy davlat tamoyili bilan uzviy bog'landi. Ushbu kafolatlarni to'liq amalga oshirish uchun eng kam ish haqini munosib turmush darajasi bilan bog'lovchi mezonlarni qonunchilikda aniq belgilash, davlat mehnat inspeksiyasining salohiyatini mustahkamlash, norasmiy bandlikni qisqartirish, xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda mehnat nizolarini mediatsiya kabi muqobil usullar orqali hal etish amaliyotini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Konstitutsiyada e'lon qilingan kafolatlar real hayotda ta'minlangandagina ular o'z maqsadiga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023-yil 30-aprel referendumida qabul qilingan. – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2022-yil 28-oktabrdagi O'RQ-798-son Qonuni bilan tasdiqlangan, 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan). – Lex.uz: <https://lex.uz/mact/-6257288>
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
4. Azizov X.T. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini ro'yobga chiqarish – muhim vazifa // *Yurisprudensiya*. – Toshkent: TDYU, 2023. – Maxsus son. – B. 15–20.
5. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2022
6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan.
7. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – inson sha'ni, qadr-qimmat va huquqlarining mustahkam kafolati. – <https://constitution.uz>